

ILMIY MAQOLA YOZISH ASOSLARI. ILMIY MAQOLA QANDAY YOZILADI?

3-bosqich talabasi

Raximova Nilufar

Ingliz tili fakulteti, ingliz

Samarqand davlat chet tillari instituti

Ilmiy rahbar: Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

PhD (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori),

SamDCHTI dotsenti

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda, ilmiy faoliyat olib borayotgan insonlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, ilmiy maqola yozuvchilar ham. Maqolalar yozish har bir ilmiy hodimning kariyerasi uchun ham mansabi uchun ham xizmat qilib va kelgusida o'z sohasini yuqori darajali vakili ekanligini ham ko'rsatib turadi. Mazkur maqola ilmiy maqola qanday yozilishi va uning strukturalari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: ilmiy maqola, altruizm, shaxsiy manfaat, tadqiqot, adabiy izlanish, ilmiy izlanish, kirish metod, muhokama, nazariya, natija, xulosa.

Botirova G.E.

BASICS OF WRITING A SCIENTIFIC ARTICLE. HOW TO WRITE A SCIENTIFIC ARTICLE?

Annotation: In today's evolving society, the number of people engaged in scientific activities are large. Especially scientific article writers. Writing articles serves both the career and career of every researchers and shows that they are highly representative of their field in the future. This article provides information on how to write a scientific article and its structures.

Keywords: scientific article, altruism, personal interest, research, literary research, method of introduction to scientific research, discussion, theory, esult, conclusion.

Maqola yozish va uni taniqli jurnalda nashr ettirish juda qiyin ish,hatto,nashr ettirish darajasiga olib kelgan mashaqqtli ishdan keyin ham. Xo'sh, nima uchun odamlar buni qilishadi?Mualliflar asarlarini nashr etish uchun yozish jaryonidan, o'zaro baholash jarayoniga o'tishga nima undaydi? Ikki xil turtki, altruizm va shaxsiy manfaat bor va aksriyat mualliflarda ikkala konbinatsiya ham bor.Altruizm- Ilmiy nashrlar bugungi kunda ilmiy yutuqlarni tarqatish va arxivlashning asosiy usuli

hisoblanadi (kitoblar, konferensiyalarning prezentatsiyalari va universitetlarda o'qitish va boshqa usullar keng tarqalgan) Ilm-fan jamoatchilik bilimlari to'plami orqali o'sib boradi va rivojlanib boradi, u doimo muhokama qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi va kengaytiriladi. Aksariyat olimlar (va men ilm-fanning ichiga ishlab chiqarishni ham olganman) o'z sohasini rivojlantirishga hissa qo'shishni juda xohlashadi, bu ko'pincha olim bo'lish uchun asosiy sababdir. Nashr qilish odatda bunday hissa qo'shishning eng to'g'ri yo'lidir va shuning uchun bu mualliflarni uqori darajada rag'batlantiradi va qoniqtiradi.

Shaxsiy manfaat- Nashriyot muallifga sezilarli foyda keltirishi mumkin, shu bilan birga maqola yozish va nashr etishda shaxsiy manfaatdorlik ta'minlanadi. Nashriyot martaba ko'tarish uchun ham xizmat qilishi mumkin va ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul mukofotlari olib keladi. Akademiyadagi "nashr etish va yo'q qilish" paradigmasi mansab pog'onasiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo aniq professional motivatsiyalarsiz ham, deyarli barcha insonlar o'zlarining sa'y-harakatlarini tan olinishini talab qilishadi. Altruizm va shaxsiy manfaatni muvozanatlashtirish kerak. Adabiy izlanish- Yangi tadqiqot loyihasi deyarli har doim adabiy izlanish bilan boshlanadi – bu loyiha uchun kerak. Ilmiy izlanishning maqsadi – bu bilim olishga kirishishdan oldin, mavzu bo'yicha umumiy bilimlarimizning holatini baholash. Ilm-fan mavjud bilimlarni tasdiqlash yoki rad etish, yangi bilimlarni rivojlantirish bilan bog'liqliligi sababli, umumiy bilimimizning holatini anglab olishimiz juda zarur. Bundan tashqari kerakki, ushbu adabiy izlanishlar beshta maqsad uchun asos bo'laoladi. Shuni ta'kidlash lozimki, adabiy izlanish tegishli hujjatlarni topish uchun emas, balki ularni o'qish uchundir. Afsuski, adabiy izlanishlar kamdan-kam hollarda kerakli darajada amalga oshiriladi. Adabiy izlanishni yaxshilash uchun bir nechta ko'rsatmalar:

- Tadqiqot qilishdan va maqola yozishdan oldin adabiyotlarni ko'zdan kechiring.
- O'qish uchun tavsiya qilinadigan eng yaxshi maqolalar hujjatlarda ham havola qilinadi.
- O'zingizning intizomingizdan tashqari bo'lgan sohalarni ham qidirib toping (bu ko'pincha turli xil kalit so'zlarni qidirishni anglatadi va yangi malumotlar topiladi).
- Oldingi hujjatlaringizni eslatib uchun yaxshi boshlashingiz bo'lsa-da, hech-kim hechqachon sizning adabiyotingizning hajmini bilmaydi (faqat hotiraga ishonib qolmaslik kerak).
- Qo'lyozmangizni tugatganizdan so'ng, ushbu mavzu bo'yicha so'nggi nashrlarni qidirib toping. Ko'pincha boshqa tadqiqotchilar ham shu mavzularda ishlaydilar. Sizning qo'l yozmangiz ushbu sohadagi eng yaxshisi va jamoat o'qishi uchun bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning aksariyati juda oddiy tuzilishga to'g'ri keladi. Ba'zi farqlarga ko'ra, ko'pgina maqolalar "IMRaD" formatidan foydalanadilar:

- 1.Kirish
- 2.Metod (tajriba, nazariya, dizayn, model)
- 3.Natijalar va muhokama
- 4.Xulosa

Maqola to'rtta mezonga javob berishi kerak, ilmiy jurnalda nashr etilishidan oldin:

Maqola mazmuni jurnal hajmiga mos kelishi kerak. Maqola sifati (tadqiqotning usuli va bajarilishi, shuningdek) yozuv) yillaricha yuqori darajada bo'lishi kerak. U yangi natijalarni taqdim etishi kerak (ko'rib chiqilgan maqolalar bundan mustasno). Natijalar o'qishga arziydigan darajada muhim. Har qanday muammolar yoki ish jarayonida uchragan kamchiliklar ham muhokama qilinishi kerak, ayniqsa, ular natijalarning qanday talqin qilinishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa. Natijalarni yozishda va ularni tavsif qilish uchun bo'lgan muammo bu tashkilot yetishmasligi, hech qachon muhokama qilinmagan natijalarni taqdim etish, natijalarning hech biriga bog'liq bo'lmagan munozarani taqdim etish, etilgan natijalarni e'tiborsiz qoldirib, mantiqiy tartibda emas, balki xronologik tartibda muhokama qilish, xulosalarni qo'llabquvvatlamaslik yoki natijalardan xulosa chiqarishni hohlamaslik.

Xulosa qismida natijalar va munozaralarning qisqacha mazmuni berilgan, ammo bu qisqacha ma'lumtdan ko'proq bo'lishi kerak. Har bir tadqiqotni xulosa qismida, Kirish qismida keltirilgan masalaning natijalari ko'rib chiqilishi va bu qanday qilib ahamiyatli ish ekanligini tushuntirib, ta'kidlanishi kerak. Bu yerda maqsad dalillar bilan tasdiqlanishi kerak, va umumiy da'volarni taqdim etish kerak. Ushbu bo'lim "men" yoki "biz" ga tegishli bo'lgan narsalar ro'yxatidan qochib, o'quvchilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Xulosalar bo'limi qisqa fursatda o'qishga imkon berish kerak.

Sarlavha va tezis. Onlayn izlanishlar va raqamli kutubxonalar davrida ilmiy maqolada yaxshi sarlavha va tezis ahamiyati muhim. Shunga qaramay, yomon sarlavhalar va sifatsiz yozilgan tezislar ilmiy va texnik adabiyotlarda juda keng tarqalgan. Maqola yozishdagi eng katta hatolik bu tezisga e'tibor bermaslik. Muallifni xatosi bu tezis yozish haqida maqola yozilgandan keyin o'ylashi. Kirish qismidagi xat boshidan boshqa hech narsa bo'lmagan tezislarni ham ko'rdim. Bunday yomon tezis, potensial o'quvchini (yoki jurnal muharririni) o'qishga qiziqishdan yiroqlashtiradi. Tezis quyidagi mavzularni o'z ichiga olgan maqolaning qisqacha va yakka xulosasi bo'lishi kerak.:

- Ma'lumot / motivatsiya/ kontekst, maqsad(lar) / muammoni bayon qilish.
- Yondashuv / usul(lar) / pretsudura(lar) / materiallar.

- Natija va
- Xulosa(lar) /
- Kalit so'zlar.

Kalit so'zlarni (“mavzu atamaları” deb ham ataladi) ochib beradi. Bugungi kunda maqolaning bosma shakli kam o'qiladi. Hozirda, sizning maqolangiz ilmiy-qidiruv tizimi natijalaridan nisbatan yuqori bo'lmaguncha ukeng darajada o'qilmaydi. Maqolangizni qidirayotgan o'quvchilar tomondan ta'minlash uchun, qilishingiz mumkin bo'lgan eng muhim birinchi narsa – bu tezis va sarlavha yozishni yaxshi bajarishdir. Ilgari berilgan maslahatlarga rioya qilish, bunga yordam beradi. Shundan so'ng siz tegishli kalit so'zni tanlashingiz kerak. Xulosa qilib aytganda “mavzu atamaları” sifatida ko'rsatilgan kalit so'zlarning aniqlashning muhim g'oyasi unchalik qiyin emas. Ushbu kalit so'zlarni sarlavhangiz va tezisingizdan topa oldingizmi? Agar yo'q bo'lsa, sizning maqolangizni qidirayotgan kishi, uni osongina o'tkazib yuborishi mumkin. Eng muhim kalit so'zlarni sarlavha va tezisdan bir, ikki marta ishlatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chris. A. Mack, “ How to write a good scientific paper” SPIE, p.o.Box 10.
2. J. M. Swales, Genre Analysis: English in Academic and Research Settings, pp. 140–166, Cambridge University Press, Cambridge, England (1990).
3. L. F. Azevedo et al., “How to write a scientific paper – Writing the methods section”, Rev. Port. Pneumol.17(5), 232–238 (2011).
4. J. M. Swales, Genre Analysis: English in Academic and Research Settings, 172–173, Cambridge University Press, Cambridge, England (